

UMUMTA'LIM MAKTABLARI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK
JIHATLARINI TADQIQ ETISH

Karimova Maxbuba Mukimjonovna

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15639866>

Annotatsiya. mazkur maqolada umumta'lim maktablari ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik jihatlari izohlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, xalqaro sifat standartlari, ta'lim sifati, yondashuvlar, modellar, raqamli texnologiyalar, umumta'lim maktablari

Аннотация. в данной статье раскрыты теоретические и методологические аспекты использования цифровых технологий для повышения качества образования в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: качество образования, международные стандарты качества, качество образования, подходы, модели, цифровые технологии, общеобразовательные школы

Abstract: this article reveals the theoretical and methodological aspects of the use of digital technologies to improve the quality of education in secondary schools.

Keywords: quality of education, international quality standards, quality of education, approaches, models, digital technologies, secondary schools.

Mamlakatimizning umumta'lim maktablarida axborotning an'anaviy va elektron tashuvchilari, virtual kutubxonalar, elektron didaktik apparatlar bazasi yaratilmoqda. Ta'lim ehtiyojlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarining yagona elektron axborot-ta'lim muhitini yaratish va shu sohadagi texnologiyalarni joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF- 5712-son farmonida «umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish, mavjud darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni elektron ko'rinishga o'tkazish, o'qitish usullarini takomillashtirish, muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy tavsifdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Dunyo hamjamiyatida AK va raqamli texnologiyalarni jadallik bilan rivojlanishi ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy dasturiy vositalar ta'lim axborot muhitining alohida infratuzilmasi hisoblanadi va ta'lim jarayonida keng qo'llaniladi. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli

texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yurtimiz ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta'minlash, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda ta'limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'quv yurtlaridagi axborot-resurs markazlari faoliyatini zamonaviy talab va mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotir.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini takomillashtirish, ularga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berish asosida ta'lim tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari (UO'TM)da mavjud muammolarining yechimini topish, ta'lim sifatini oshirishni demokratik tamoyillar va innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirishni taqozo etmoqda.

UO'TMda pedagogik jarayonlarni tashkil etish, ta'lim sifatini nazorat qilish, o'qituvchi va o'quvchilarga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishda faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; UO'TM faoliyati va imkoniyatlari, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra vazifalarni taqsimlash; pedagog xodimlarning uzluksiz malaka oshirishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish; moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborotlar texnologiyalarni tatbiq etish; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish; UO'TM rivojlanish moyilligi va dinamikasi bo'yicha axborotlar to'plash va tahlil qilish; pedagoglarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish UO'TM rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi.

UO'TM rahbarlarining funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni ko'zlangan natijalarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash, pedagog xodimlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda ta'lim sifatini axborot texnologiyalari vositasida rivojlantirishni ta'minlash zaruratini ifodalaydi.

M.Mirqosimovning fikricha, ta'lim sifatini rivojlantirish birinchi galda kishilarning iqtisodiy va moddiy holatini, ijtimoiy faoliyatini, ularni qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi, jamoada uyushqoqlik, tartib, mehnat taqsimoti bo'lmasa, kishining jamoadagi o'rni va vazifalari tayin bo'lmasa, mehnat jamoasi bo'lishi mumkin emas. Tabiiyki, UO'TM da ta'lim sifatini oshirish va boshqaruvsiz, muayyan tartibni o'rnatmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan turib, mehnat faoliyatini amalga oshirib bo'lmaydi [4, 16- b.].

Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ta'lim tizimini boshqarish o'ziga xos san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov yoki izlanish asosida qarorlar qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir [1, 6-b.]. Boshqaruv – bu maqsadga erishish uchun ob'ektga ta'sir etish bo'lib, ob'ekt faoliyatini muvofiqlashtirish, ya'ni maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirishdir [2, 133-b.].

Ta'lim sohasini raqamlashtirish bugungi kunning dolzarb ishlaridan biridir. Bu borada I.M.Siddiqov [3, 14-b.]. tadqiqot ishlarida shunday deb ta'kidlaydi: Ta'limni raqamlashtirish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim faoliyatining barcha jabhalariga integratsiyalash jarayonidir. Bu jarayon ta'lim muassasalari va o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini “Kreativ talim: innovatsiya va samaradorlik” mavzusida o'tkazilgan Xalqaro miqyosidagi ilmiy- amaliy anjumanida raqamli texnologiyalar o'quv tajribasini boyitish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi degan fikrlar aytib o'tilgan. Virtual sinflar, o'quv platformalari, onlayn kurslar va multimedia resurslari ta'lim muhitining ajralmas qismiga aylanib, o'quv tajribasini boyitib, bilimlarni yanada samarali o'zlashtirishga yordam bermoqda.


Demak, UO'TM pedagogik jarayonlar sub'ektlarining ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash yo'nalishlaridagi faoliyatlari maktab faoliyatini tashkil etishda, ko'zlangan natijalarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayonishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish yo'nalishidagi faoliyat jarayonida UO'TM rahbarlari tomonidan ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, zamonaviy axborotlar kommunikatsion texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish; moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi va sotsium munosabatlarida uzluksiz aloqani ta'minlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirilishi zarur.

Maktab faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'nalishi bo'yicha UO'TM rahbarlari belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash; faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarini tanlash va bajariladigan

vazifalarni taqsimlash; UO'TMning rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagog xodimlar va o'quvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish; UO'TM faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; pedagog xodimlarning innovatsion faoliyatini tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish kabi funksional vazifalarni bajarishi lozim.

Shunday ekan, UO'TM ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq faoliyati maktab faoliyatini tashkil etish va pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish, pedagogik jarayon sub'ektlari faoliyatini takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va sifatli ta'limni ta'minlash, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va muvofiqlashtirish, o'zini-o'zi boshqarish va rivojlantirish kabi yo'nalishlarni (1- rasm) qamrab oladi deb aytish mumkin.



1-rasm. UO' TM ta'lim sifatini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish yo'nalishlari.

Davr o'quvchilari, nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, raqamli texnologiyalarga shunchalik bog'landikki, bu jarayon jamiyatning har bir sohasida o'z yutuqlari bilan kirib kelib taraqqiyot sari barcha jabhalarga o'z ta'sirini ijobiy natijaviy ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, bugungi kunda ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalarining zamonaviy dasturiy vositalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni zamonaviy dasturiy vositalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi kompetentligini shakllantirish, ta'lim tizimini texnik va dasturiy jihatdan ta'minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin. Chunki ta'lim tizimi sifatini oshirish jarayonini zamonaviy dasturiy vositalari asosida tashkil etish quyidagi talablarga javob bera olishi lozim fanning ilg'or yutuqlari va elektron axborot vositalaridan foydalanish, dars jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish; ta'lim jarayonida dasturiy vositalari yordamida barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash, o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart - sharoitlarni yaratish; dasturiy vositalari asosida o'quvchilar anglab etadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish, ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish.

Hozirgi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari kompaniyaning rivojlanish bosqichining final bosqichida. Ular "Axborot" deb nomlangan keyingi bosqichga o'tishni amalga oshiradilar. Jamiyatning infratuzilmasi ma'lumot to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish usullari shakllantiriladi. Ma'lumot strategik resursga aylanadi. Shuning uchun, XX asrning

ikkinchi yarmidan tsivilizatsiya qilingan dunyoda "Bilimlar iqtisodiyoti" ga o'tish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy, aniqroq omilga aylandi, bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'ldi, sezilarli darajada o'sish kuzatilmoqda. Jahon hamjamiyatining deyarli barcha vazifalarini hal qilishda ma'lumotlarning ahamiyati. Bu ilmiy va texnik inqilob asta-sekin intellektual ma'lumotlarga aylanishiga qat'iy dalillar, ma'lumotlar ijtimoiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat, ta'limni tashkil etish va boshqarishning foydali va samarali zamonaviy vositalarini misol keltirishimiz mumkin.

Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning dasturiy vositalardan foydalanish kompetentligini shakllantirish maqsadida respublikamiz o'quv yurtlarida ta'lim tizimini kompyuter, multimedial elektron qo'llanmalar, internet, elektron ma'lumotlar bazasi, masofadan o'qitish kabi yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etishni yanada yuqori darajaga olib chiqish hamda dars jarayonida o'quv, o'qitish, modellashtirish, amaliy, axborotli va boshqa dasturlardan keng foydalanish oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, birgina shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi va ulardan barcha sohalarda keng foydalanish ta'lim tizimi imkoniyatlari tubdan o'zgartirdi, shu bilan birga Internet tarmog'i ta'lim tizimiga yangi elektron axborot vositalarini tatbiq etish bo'yicha yanada katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shuning uchun ham ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning dasturiy vositalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish eng avvalo, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya tizimiga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lib kompyuterli ta'limning shakllanishiga imkon beradi.

REFERENCES

1. Ashurov J.Dj., Zamonaviy ta'lim muhitida raqamli pedagogikaning o'rni va ahamiyati // Eurasian journal of academic research, Innovative Academy Research Support Center / Volume 1 Issue 9, December 2021 ISSN 2181-2020.
2. Kozlova N. Sh. Ta'limdagi raqamli texnologiyalar // Maykop davlat texnologiya universitetining xabarnomasi. 2019. jild. 1/40. 83–90-betlar.
3. Madiyeva G.A "Ta'limda yangi innovatsion modelni tatbiq qilishning ahamiyati."Science and Education 3.2 (2022): 777-780.
4. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 159 b.